

Har xilmiz, lekin tengmiz



Dunyoda juda ko'p odam yashaydi.
Hammamiz bir-birimizdan farq qilamiz. Har
bir inson o'ziga xos va betakrordir.



Bolalarning ismlarini va ular yashaydigan
mamlakatlarning nomlarini o'qing. Bu bolalar nimasi
bilan farq qiladi? Ularning nimasi bir xil?



Akmal,
O'zbekiston



Abeni,
Uganda



Rama,
Hindiston



Vujou,
Xitoy



Yegor,
Rossiya



Emmi,
Finlyandiya



Turli davlatlardan kelgan mehmonlarimizning liboslarini o'rganib chiqing. Bu davlatlar haqida nimalarni bilasiz?



Hindiston



Finlyandiya



Meksika



Angliya



**Birlashgan
Arab
Amirliklari**





Odamlar bir-biridan ko'rinishi, yoshi, tili, millati, salomatligi bilan farq qiladi. Shuning uchun har bir inson o'ziga xosdir. Har bir inson betakrordir!

Lekin... har bir inson salomat, baxtli bo'lishni istaydi. Har bir inson baxtli hayot kechirishni orzu qiladi va shunga intiladi. Har bir insonning hayoti azizdir!





1. Jadvaldan o'zingizga yoqqan so'z va rasmlarni tanlang. Nimalarni tanladingiz?
2. O'rtoqlaringiz nimalarni tanlashibdi? Ular tanlagan nechta so'z va rasm sizniki bilan bir xil ekan?
3. Nima uchun ularga ham, sizga ham bir xil narsalar yoqqan deb o'ylaysiz?

OG'RIQ			OCHLIK
		ONA	
	SHODLIK		SALOMATLIK
DO'ST, DUGONA		UY	URUSH
	JANJAL		
KASALLIK			YAXSHILIK



Daftarda berilgan milliy liboslarni bo'yang.
Bu qaysi mamlakatning liboslari?